



**ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYaLARNI JORIY QILISH ORQALI  
IQTISODIY FANLARNI O'QITISH SAMADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.**

*TTESI, «Iqtisodiyot va menejment» kafedrasi kata o'qituvchisi*

**Umarova M.N.**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda iqtisodiyot fanlari pedagog-o'qituvchilaridan bozor o'zgarishlarining ziddiyatli jarayonlarini nazariy qoidalar asosida tahlil qilish uchun o'qitishning interaktiv metodikalari, test topshiriqlari, aniq vaziyatlardan maqsadli foydalanishni talab etadi. SHundan kelib chiqqan holda maqolada iqtisodiy fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish amaliyoti keltirilgan.

**Аннотация:** Сегодня от педагогов-преподавателей экономических дисциплин требуется целенаправленное использование интерактивных методик обучения, тестовых заданий, конкретных ситуаций, чтобы на основе теоретических положений анализировать противоречивые процессы рыночных преобразований. Исходя из этого в статье приводится практика эффективного использования педагогических технологий при преподавании экономических дисциплин.

**Annotation:** Today, teachers-teachers of economic disciplines are required to purposefully use interactive teaching methods, test tasks, specific situations in order to analyze the contradictory processes of market transformations on the basis of theoretical principles. Based on this, the article provides a practice of effective use of pedagogical technologies in the teaching of economic disciplines.

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyotning barcha sohalarini modernizatsiyalash jarayoni ro'y bermoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlar ichida iqtisodiyot alohida o'rin tutadi. Chunki har doim insonning hayoti iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va uning asosida ta'minlab kelingan. Shuningdek, iqtisodiy fanlarni o'qitish muhimligi shundaki, u insonning eng zarur moddiy sharoitini



ta'minlaydi, yashash uchun sharoit yaratadi. Iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanayotgan jamiyatda tinchlik, tartib va barqarorlik xukm suradi. Samarali iqtisodiyot tamoyillari va qonunlarini bilish esa insonlarda o'ziga ishonch uyg'otadi, eng qiyin iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va baholashga, shuningdek optimal xo'jalik qarorlari qabul qilishga imkon beradi. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning ilmiy-texnikaviy va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish – har qanday tur, bosqich yoki darajadagi ta'larning asosiy vazifalaridan biridir. Zotan, bugungi kun yoshlari texnika va texnologiya, iqtisodiyot asoslari borasidagi bilimlardan xabardor bo'lsa-yu, ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmasa, u ko'zlangan maqsadga erisha omaydi. O'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishgina ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi texnika, mehnat qurollari va yangi texnologiyalar yaratish imkonini beradi.

Hozirgi davrda mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti-kadrlarni tayyorlash tizimini mukammal bo'lishi iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanish hisoblanadi. Bu sohadagi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» uzlusiz ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan isloh qilishga qaratilgan. “Milliy dastur”ni amalga oshirishda kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o'zgartirish, zamonaviy ilmiy fikrlar, yutuqlarni va ijtimoiy tajribalarni ta'lim jarayonining hamma bosqichlarida, uzlusiz ta'lim tizimi ta'lim muassasalarining hamma shakli va turlarida ilg'or-metodik ta'limgarga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonlariga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yuqori samara berishi mumkin. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondoshish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqillikni shakllantirish yotadi. Shuning uchun iqtisodiy fanlarni o'qitish samarasini



oshirish talabalarning aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish, intellektual rivojini ta’minalash, kasbi va mutaxassisligi bo‘yicha bilimlarini mukammal egallab, amaliyotda qo‘llay bilishini ta’minalaydi. Iqtisodiyot bo‘yicha g‘arb olimlari darsliklari bilan tanishganimizda, xar bir nazariy ma’ruza albatta amaliy misollar bilan tasdiqlanganligiga guvoh bo‘lamiz. Shunday qilib, talabalarga bilim berish jarayonida, albatta halq ho‘jaligi tarmoqlari rivojlanishi, istiqbollari va hozirgi holatiga oid misollar bilan ularni qiziqtirish lozim. Yuqorida keltirilgan masalani samarali yechishda quyidagi vazifalarni oldimizga qo‘yamiz:

1. Ta’lim-tarbiya jarayonida to‘plangan bilim, ko‘nikma va malakani shakllangan yig‘indisini hosil qilish.
2. “Milliy dastur”ni amalga oshirishda mavjud tizimni tubdan o‘zgartirish, zamonaviy ilmiy fikrlarni, tajribalarni joriy etilishiga ilg‘or pedagogik usullar yordamida erishish.
3. Fanni o‘zlashtirish jarayonida har bir mavzuning mohiyati va tajribadan kelib chiqib ilg‘or pedagogik texnologiyaning ma'lum bir usullarini qo‘llash.
4. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali talabani erkin fikrashga, fan ustida samarali izlanishni tashkil etish.
5. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida do‘stona, faol munoabatlarni tiklash va ta’limni samarali tashkil etish.

Misol tariqasida mavzular bo‘yicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan harakatlarni tadqiq qilamiz.

1. Mavzu: «Ishlab chiqarish rejasi-biznes rejaning asosiy bo‘limlaridan biri» Bu mavzuni yoritishda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usulidan foydalaniladi. Talabalar kichik guruhlarga ajratiladi va har bir guruh korxona ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish rejasini natura va qiymat ko‘rsatkichlarida hisoblashni amalga oshiradilar. Ish rejasi korxonani haqiqatdagi rejasi bilan solishtirilib guruhlarga ballar qo‘yiladi. Ishlab chiqarish rejasini hisoblashda paket dasturlaridan foydalaniladi.

2. Mavzu: «Mehnat va ish haqi bo‘limini rejalashtirish». Bu mavzuni yoritishda klaster usulidan foydalaniladi. Klaster usuli yordamida talabalar mavzuni



mukammal o‘rganmasdan oldin fikrlash jarayonini chuqurlashtirish uchun mustaqil ravishda mavzu bo‘yicha asosiy g‘oyalarni qog‘oz varag‘iga jadval yoki chizmalar ko‘rinishida keltiradilar. Ish haqini hisoblash asoslarini o‘rganganlaridan keyin personal kompyuterlar yordamida ish haqini hisoblash dasturini tuzadilar.

3. Mavzu: «Maxsulot tannarxini rejalashtirish». Mavzuni yoritishda «T-sxema» usulidan foydalaniladi.

4. Mavzu: «Moliyaviy ko‘rsatkichlarni shakllanishi». Bu mavzuni yoritishda «Keys stadi» usulidan foydalaniladi.

Iqtisodiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha berilgan barcha mavzularda yuqorida keltirilgan usullardan tashqari aqliy hujum, vizual ma’ruza, muammoli ma’ruzalar, loyiha usullaridan foydalaniladi. Yuqorida aytilganlarga asosan bajariladigan ishning asosiy maqsadi iqtisodiy fanlar bo‘yicha talabalar bilim darajasini oshirish orqali mutaxassislikni chuqur singdirish, amaliyotda biznes rejani mustaqil tuzishga erishishdan iborat. Izlanishlar natijasida yangi pedagogik texnologiyalarga tegishli bo‘lgan me'yoriy xujjatlar, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganib chiqiladi va tahlil qilinadi va tanlab olingan usullar o‘quv jarayonida sinab ko‘riladi. Bu usullarning kamchiliklari tahlil qilinib, yangi uslub taklif etiladi. Iqtisodiy fanlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish orqali ta’lim texnologiyalarni ilmiy asoslashga, talabalarni fundamental bilimlarini va amaliy tayyorgarligini oshirish orqali davr talabiga javob beruvchi oliy darajadagi mutaxassislarni tayyorlashga, pedagogik innovatsiyalarni oliy ta’limga joriy etishga erishiladi.

### Adabiyotlar:

1. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-stadi “Iqtisodiy oliy o‘quv yurtidagi zamonaviy ta’lim texnologiyasi”: Ilmiy-uslubiy qo‘llanma (“Zamonaviy ta’lim texnologiyalari” turkumi). – T.: TDIU, 2009. – 150 bet.

2. Сангадиева И., Новолодская Г. (Восточно-сибирский государственный технологический университет).

Методические указания по



составлению «casestudy» по курсу экономики. - <http://referat.cis2000.ru/books/book6/ch1>

3. Смолянинова О.Г. Дидактические возможности метода case-study в обучении студентов. - <http://www.lan.krasu.studies/authors/smolyaninova/CASESTUDY/articles/Didacni>.

4. Кейс-метод. Окно в мир ситуационной методики обучения (case-study). - [www.casemethod.ru](http://www.casemethod.ru)